



FORMING NEW PARADIGMS OF EDUCATIONAL PHILOSOPHY IN THE ERA OF GLOBALIZATION

Zafarbek A. Karimov

Associate Professor

Department of National Ideology and Philosophy

Urganch State Pedagogical Institute

kzafarbek727@gmail.com

Urganch, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: globalization, philosophy of education, paradigm, digital literacy, humanism, sustainable development.

Received: 19.11.25

Accepted: 20.11.25

Published: 21.11.25

Abstract: This article is devoted to the analysis of the fundamental transformation of educational philosophy and the formation of new paradigms in the era of globalization. In today's context of global integration, the content and methods of education are transcending national boundaries and harmonizing with universal values and transnational standards. At the same time, modern education faces urgent tasks such as developing individuals' independent thinking, building competencies in working with information and communication technologies, and deepening the principles of humanism. As a methodological approach, the study employs philosophical-comparative analysis, systems analysis, and integrative theoretical modeling. The results of the research show that in the context of globalization, educational paradigms are formed based on the development of human capital, promotion of digital literacy, implementation of innovative approaches, and reliance on universal human values.

In conclusion, it is argued that new paradigms require education to be viewed not only as a means of knowledge transmission but also as a strategic process for ensuring personal development and societal stability.

GLOBALASHUV DAVRIDA TA'LIM FALSAFASINING YANGI PARADIGMALARINI SHAKLLANTIRISH

Zafarbek A. Karimov

Dotsent

Milliy g'oya va falsafa kafedrası

Urganch davlat pedagogika instituti

kzafarbek727@gmail.com

Urganch, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: globallashuv, ta'lim falsafasi, paradigma, raqamli savodxonlik, insonparvarlik, barqaror taraqqiyot.

Annatatsiya: Mazkur maqola globallashuv davrida ta'lim falsafasining tubdan o'zgarishi va yangi paradigmalarni shakllantirish jarayonini tahlil qilishga bag'ishlangan. Hozirgi global integratsiya sharoitida ta'limning mazmuni va metodlari milliy chegaralardan chiqib, universal qadriyatlar va transmilliy standartlar bilan uyg'unlashmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy ta'lim oldida shaxsning erkin fikrlashini rivojlantirish, axborot-kommunikatsion texnologiyalar bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirish hamda insonparvarlik tamoyillarini chuqurlashtirish kabi dolzarb vazifalar turibdi. Maqolada metodologik yondashuv sifatida falsafiy-taqqoslash, tizimli tahlil va integrativ nazariy modellashirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari globallashuv sharoitida ta'lim paradigmalari inson kapitalini rivojlantirish, raqamli savodxonlikni oshirish, innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda shakllanishini ko'rsatdi. Xulosa o'rnida, yangi paradigmalar ta'limni nafaqat bilim berish, balki shaxsiy taraqqiyot va jamiyat barqarorligini ta'minlovchi strategik jarayon sifatida qarash zarurligini anglatadi.

ФОРМИРОВАНИЕ НОВЫХ ПАРАДИГМ ФИЛОСОФИИ ОБРАЗОВАНИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ**Зафарбек А. Каримов**

Доцент

Кафедра национальной идеи и философии

Ургенчский государственный педагогический институт

kzafarbek727@gmail.com

Ургенч, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: глобализация, философия образования, парадигма, анализу коренных изменений философии цифровая грамотность, гуманизм, образования и процессу формирования

устойчивое развитие.

новых парадигм в эпоху глобализации. В условиях современной глобальной интеграции содержание и методы образования выходят за рамки национальных границ и гармонируют с универсальными ценностями и транснациональными стандартами. Наряду с этим, перед современным образованием стоят актуальные задачи, такие как развитие самостоятельного мышления личности, формирование компетенций в области информационно-коммуникационных технологий и углубление принципов гуманизма. В качестве методологической базы в исследовании использовались философско-сравнительный анализ, системный подход и интегративное теоретическое моделирование. Результаты исследования показали, что в условиях глобализации образовательные парадигмы формируются на основе развития человеческого капитала, повышения цифровой грамотности, внедрения инновационных подходов и опоры на общечеловеческие ценности.

В заключение подчеркивается, что новые парадигмы предполагают рассмотрение образования не только как средства передачи знаний, но и как стратегического процесса, обеспечивающего личностное развитие и устойчивость общества.

Kirish. Zamonaviy sivilizatsiyani bugun ilm-ma'rifat va ta'lim taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Globallashuv jarayonlari jadallashgan bir sharoitda ta'limning rivoji nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishning, balki milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'un taraqqiy etishining asosiy kafolati sifatida namoyon bo'lmoqda. Jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni strategik ustuvor yo'nalish sifatida rivojlantirishga qaratilgan islohotlarning jadallashuvi bejiz emas, chunki har bir mamlakatning kelgusi taraqqiyoti, intellektual salohiyati va raqobatbardoshligi, avvalo, ushbu sohada qo'lga kiritilgan yutuqlar bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekiston ham mazkur global jarayonlardan chetda qolmay, oliy ta'lim tizimini isloh qilish va yangi paradigmalarni shakllantirish yo'lida muhim qadamlar tashlamoqda. Xususan, 2019-yil oktabr oyida qabul qilingan "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni kuchaytirish hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishni bosh maqsad qilib belgiladi. Ushbu

hujjat ta'limning mazmun-mohiyatini yangilash, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, fan–ta'lim–ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash orqali yangi falsafiy yondashuvlarni shakllantirish zarurligini ko'rsatib berdi. Natijada oliy ta'lim tizimi nafaqat milliy taraqqiyotning, balki globallashuv sharoitida shakllanayotgan yangi ta'lim paradigmalarning markaziy maydoniga aylanmoqda.

Tadqiqotning usullari. Ijtimoiy falsafa yo'nalishlaridan biri sifatida ta'limni falsafiy nuqtai nazardan o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'lim falsafasi ta'limning mazmuni, qonuniyatlari, prinsiplari va mavjud muammolarini tahlil etuvchi, ularni nazariy jihatdan asoslab beruvchi falsafiy qarashlar majmuasidir. Ba'zi manbalarda bu tushuncha ta'lim jarayonida yuzaga keladigan falsafiy masalalarni tadqiq etuvchi maxsus bilim sohasi sifatida ham izohlanadi.

Ta'lim falsafasining mohiyati, avvalo, inson kamolotini va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma'naviy taraqqiyotidagi ta'limning o'rnini chuqur anglashda namoyon bo'ladi. Shuningdek, uning vazifalaridan biri shaxsda falsafiy tafakkurni shakllantirish, dunyoqarashni kengaytirish va muammolarga tanqidiy hamda ijodiy yondashish qobiliyatini rivojlantirishdir.

Bugungi kunda ta'lim jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu bois ta'lim falsafasi va metodologiyasining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ta'lim jarayonining rivojlanishi uni falsafiy asoslarda tahlil qilishni, nazariy umumlashmalar chiqarishni va yuksak falsafiy dunyoqarashga ega bo'lishni taqozo etadi. Zero, bu jarayonda yuzaga keladigan murakkab masalalarning yechimida falsafiy tafakkur hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Mamlakatimiz ijtimoiy hayotida ham falsafiy tafakkurga qaratilgan e'tibor ortib borayotganini kuzatish mumkin. Xususan, ta'lim va tarbiya sohasida falsafaning nazariy hamda amaliy ahamiyati sezilarli darajada kuchaymoqda.

Paradigma (grekcha, paradeigma) so'zining o'zi keng ma'noda turmush va fikrlashining biror sohasining fundamental asoslarini aniqlab beruvchi o'ziga xos tuzilishga ega nazariya deb izohlanadi.[1]

Ma'lumki, shaxs tarbiyasi doimo turli qadriyatlarga tayangan holda amalga oshiriladi. Ularni shartli ravishda bir necha yo'nalishga ajratish mumkin.

Transsendental qadriyatlar — tarbiyalanuvchini mutlaq haqiqat, ma'naviy komillik va Yaratganga yaqinlashtirish g'oyalari bilan bog'liqdir.

Sotsiosentrik qadriyatlar — jamiyat hayotida erkinlik, tenglik, mehnatsevarlik, tinchlik, ijodkorlik va insonparvarlik kabi tushunchalarni o'zida mujassam etadi.

Antroposentrik qadriyatlar esa shaxsning individualligi, o'zini namoyon eta olishi, foydalilik va o'z-o'zini rivojlantirish imkoniyatlariga asoslanadi.

Shaxs tarbiyasida ushbu qadriyatlardan qaysi biri yetakchi o‘rin egallashini aniqlash ta’lim-tarbiyaning falsafiy asoslarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, aynan shu qadriyatlar tizimi ta’limiy paradigmalarni tanlash, ularni rivojlantirish va amaliyotga tatbiq etishda mezon vazifasini bajaradi. Globallashuv jarayonida esa qadriyatlar yanada xilma-xil shaklda namoyon bo‘lib, shaxsning har tomonlama kamol topishiga va zamonaviy ta’lim paradigmalari shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Pedagogika fanida “paradigma” atamasi turli ma’nolarda qo‘llanadi. Ulardan biri, asosan, T. Kunning ilmiy merosiga yaqin bo‘lib, uni klassik ta’limot doirasida tushuntirish mumkin. Bu yondashuvga ko‘ra, paradigma ilmiy faoliyatning umumiy modeli, tadqiqot olib borishda amal qilinadigan me’yorlar, standartlar va metodologik mezonlar yig‘indisidir. Paradigma, shu ma’noda, muayyan fan yoki bir nechta yaqin fan sohalarida olimlar hamjamiyati tomonidan qabul qilingan dunyoni izohlashga doir yetakchi yondashuvni, g‘oyalar va qadriyatlar tizimini o‘zida mujassam etadi.

E.V.Berejkova, V.V.Krayevskiy, N.A.Korshunova kabi olimlar ham xuddi shunday nuqtayi nazarga asoslanadilar. Xususan, E.V.Berejkova va V.V.Krayevskiylar tomonidan paradigma tushunchasiga shunday ta’rif berilgan: “Paradigma – fanning obyekti emas, uning o‘zi nazariy standartlar, metodologik me’yorlar, qadriyatli mezonlar sifatidagi ilmiy faoliyat. Paradigma – aniq vaqt doirasida ilmiy jamoatchilikka muammolarni qo‘yish va ularni hal etish modeli sifatida taqdim etiladigan barcha ilmiy yutuqlarga tegishli tadqiqot vazifalarini hal etish namunasi sifatida qabul qilingan nazariya (yoki muammolarni qo‘yish modeli)”. [2]

Ta’limning yangi paradigmasining paydo bo‘lishi faqat ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lmasdan, u butun madaniy rivojlanish jarayonida yuzaga kelgan. Uning shakllanishida insonparvarlik falsafasi va psixologiyasi asosiy o‘rin egallaydi. Mazkur konsepsiyaning asosiy nuqtai nazari – har bir alohida inson hayotining o‘ziga xosligi, har bir shaxs noyob, individual, shartsiz qadriyat ekanligini e’tirof etish. Insonparvar falsafa va psixologiya o‘z-o‘zini realizatsiyalash, o‘z-o‘zini rivojlantirish ehtiyojini insonning yuksak ehtiyoji deya e’tirof etib, insonning o‘z noyobligini asrash va rivojlantirish, insonning erkinlikka erishish mexanizmi sifatida individual shaxsiy tanlovni amalga oshirishni o‘zida namoyon etish, qilingan tanlov uchun javobgarlikni bo‘yniga olishda ularni amalga oshirishning muhim shartini ko‘radi. Shuning uchun shaxsning rivojlanishi va insonning shakllanishi boshqalar bilan hamjihatlikda, ishonch, oshkoralik, sevgiga asoslangan insonparvar munosabatlarni o‘rnatish jarayonida sodir bo‘ladi.[3]

Zamonaviy pedagogikada keng qo‘llaniladigan bir qator paradigmalarning mavjudligini ko‘rish mumkin. Ular orasida eng asosiylari sifatida an’anaviy (bilimga yo‘naltirilgan),

fenomenologik (insonparvarlikka asoslangan), ratsionalistik (bixevioristik, xulq-atvorni shakllantirishga yo'naltirilgan), texnokratik hamda ezoterik paradigmalarga olinadi.

Shulardan an'anaviy paradigma o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra bilimga yo'naltirilgan ta'lim modelini ifodalaydi. Ushbu yondashuvning bosh maqsadi bilimlarni har qanday shaklda o'zlashtirishni ta'minlashdir. Bu paradigmadagi ta'lim muassasalarining vazifasi insoniyat sivilizatsiyasining boy madaniy merosini asrab-avaylash, uni o'quvchi shaxsga yetkazish hamda turli ko'nikma va malakalar orqali individual va ijtimoiy rivojlanishga yo'naltirishdan iboratdir. Shu sababli an'anaviy ta'lim modeli asosida ishlab chiqilgan dasturlar shaxsning tayanch va asosiy kompetensiyalarni egallashiga, zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishiga hamda ijtimoiy hayotda faol ishtirok eta oladigan funksional savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi.

Ratsionalistik (bixevioristik) paradigma negizida ta'lim mazmuni emas, balki o'quvchilar tomonidan turli bilimlarni o'zlashtirilishini ta'minlovchi samarali usullari yotadi. Ta'lim muassasalarining vazifasi o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy me'yorlar, ijtimoiy talablar va ko'zlagan maqsadlariga mos keladigan xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.[4]

Insonparvarlik, ya'ni fenomenologik paradigma, o'z mohiyatiga ko'ra, shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoji, erkinlik va ma'naviy barkamolligini yuksaltirishga qaratilgan yondashuvni ifodalaydi. Ushbu ta'lim modeli, avvalo, o'quvchining ichki dunyosini boyitish, shaxslararo muloqot madaniyatini shakllantirish, ijodiy faoliyatni rivojlantirish hamda umumiy ma'noda shaxsning har tomonlama kamolotiga ko'maklashishni asosiy vazifa sifatida belgilaydi.

Insonparvarlik paradigmasi qat'iy yagona qarash bilan cheklanmaydi, balki unda ta'limning turli modellaridan foydalanish imkoniyati mavjud. Bu yondashuvga ko'ra, ta'lim muassasasining ustuvor maqsadi o'quvchini aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik jihatdan uyg'un rivojlantirishdir. Shuningdek, bu paradigma doirasida faoliyat yurituvchi har qanday ta'lim tizimi ijodiy izlanishlarga tayanadi, ta'lim va tarbiyaning mazmuni, metodlari hamda vositalaridan samarali foydalanishni nazarda tutadi. Fenomenologik paradigma ta'lim jarayonida ham o'qituvchidan, ham o'quvchidan erkinlik va ijodkorlikni talab qilishi bilan ahamiyatlidir.

Pedagogik faoliyatning insonparvarlik tamoyiliga asoslangan paradigmasi quyidagi mezonlarga tayanadi:

- Ta'limning ijtimoiylashuvi – o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida texnokratik yondashuvdan voz kechish, bilimlarni pedagogik va psixologik jihatdan mazmunli o'zlashtirishni ta'minlash hamda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ijtimoiy tafakkurni shakllantirish.

- Milliy va jahon madaniyatidan xabardorlik – shaxsning madaniy ongini kengaytirish va ta’lim jarayonini global hamda milliy qadriyatlar bilan uyg’unlashtirish.
- Milliy istiqloq g’oyalariga asoslanish – ta’lim va tarbiya jarayonini milliy mustaqillik mafkurasi hamda ma’naviy qadriyatlar bilan uyg’unlashtirish.
- O‘z-o‘zini rivojlantirish va mustaqil ta’lim olish layoqatini qo‘llab-quvvatlash – shaxsning ijodiy va intellektual salohiyatini mustahkamlash.
- O‘qituvchi va talabalar hamkorligi – kasbiy tayyorgarlik jarayonida interaktiv munosabat va hamkorlik asosida faoliyat olib borishga erishish.
- Tanlov imkoniyatiga ega o‘quv dasturlari – kasbiy ta’lim jarayonida talabalar qiziqishi va qobiliyatlariga mos individual yo‘nalishlarni tanlash imkonini yaratish.
- Fundamental bilimlar ustuvorligi – o‘zgaruvchan sharoitlarda shaxsning ijodiy rivojini ta’minlovchi invariant bilimlarni o‘zlashtirish.
- Mehnat bozoriga moslashuvchanlik – ijtimoiy ehtiyojlarga javob bera oladigan, kasbiy jihatdan moslashuvchan mutaxassislarini tayyorlash.
- Ta’limning uzluksizligi – har bir bosqichda natijadorlikni ta’minlash, malaka oshirish va qayta tayyorlash dasturlarini rivojlantirish, shuningdek, turli tipdagi ta’lim muassasalari o‘rtasida davomiylilikni yaratish.
- Ta’limning ekvivalentligi – ta’lim darajasining davlat standarti, milliy madaniyat va mentalitet hamda xalqaro me’yorlarga muvofiq bo‘lishini ta’minlash.

Ilmiy-texnik (texnokratik) paradigma ta’lim jarayonida aniq va ishonchli bilimlarni berish, o‘zlashtirish hamda amaliy hayotda qo‘llashni bosh maqsad qilib oladi. Bu paradigma shaxsni mustaqil fikrlovchi subyekt sifatida emas, balki belgilangan standart, etalon va o‘rtacha namunalarga moslasha olishi darajasiga ko‘ra baholashga asoslanadi. Unda o‘quv-tarbiya jarayonining natijalari odatda “egallagan – egallamagan”, “biladi – bilmaydi”, “tarbiyasi – tarbiyasiz” kabi qat’iy dikotomik mezonlar orqali aniqlanadi. Shu jihatdan, ilmiy-texnik paradigma doirasida shaxsning tayyorgarligi, ma’lumotlilik darajasi va tarbiyalanganligi oldindan belgilangan ideal qolip asosida o‘lchanadi. Mazkur yondashuvning ustuvor jihati ta’limda tartib, izchillik va aniqlikni ta’minlashi bo‘lsa-da, u ko‘pincha insonning ijodiy va erkin rivojlanish imkoniyatlarini cheklab qo‘yadi.[5]

Ezoterik paradigma insoniyatning eng qadimiy ta’limiy yondashuvlaridan biri bo‘lib, yunon tilidan olingan “ezoterikos” so‘zi “sirli”, “yashirin” degan ma’nolarni anglatadi. Ushbu paradigma mohiyatida haqiqatga munosabat masalasi yotadi. Ezoterik qarash tarafdorlariga ko‘ra, haqiqatni faqatgina aqliy bilish orqali anglash mumkin emas; unga faqat vijdon pokligi, ichki ma’naviy tozalik orqali erishish mumkin. Bu yondashuvdagi pedagogik faoliyatning asosiy

vazifasi – o‘quvchining tabiiy salohiyati, ichki imkoniyatlari va kuchlarini ro‘yobga chiqarish hamda uni yuqori ong darajasiga yetaklashdir. Shu bois o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki axloqiy, jismoniy va psixik tayyorgarlikni shakllantirishda ham muhofaza qiluvchi va yo‘naltiruvchi vazifani bajaradi. Ezoterik paradigma doirasida ta‘lim shaxsning ichki kamolotini, ruhiy uyg‘unligini va ma‘naviy yuksalishini asosiy mezon sifatida belgilaydi.

Paradigmatik yondashuv ta‘lim jarayonini chuqur anglashda muhim metodologik vosita sifatida ko‘plab olimlar tomonidan ilmiy asoslab berilgan. Xususan, I.S. Yakimanskaya (1979), V.V. Davydov (1986), V.Y. Pilippovskov (1992–1993), V.G. Shukshunova (1994–1995), I.A. Kolesnikova (1995), E.V. Bondarevskaya (1997), V.F. Pora, L. Romankova (1999), G.B. Kornetova (1999), V.V. Serikova (1999), A.Y. Savelyeva (2000), S.V. Kulnevich (2001) va boshqa tadqiqotchilarning ishlari ushbu yondashuv asosida ta‘lim-tarbiya tizimining modelini aniqlash, uning mohiyati va xususiyatlarini yoritishga xizmat qilgan.

Zamonaviy ta‘lim amaliyotida, asosan, an‘anaviy, bixevioristik va fenomenologik paradigmalardan keng foydalanilmoqda. Paradigmatik yondashuv o‘zida bir qator samarali metodlarni mujassam etadi: breynstorming (aqliy hujum), breynrayting, kakografiya, dumaloq stol, diskussiya, sinkveyn, noan‘anaviy testlar va boshqalar.

Bunday metodlarni seminar va trening mashg‘ulotlarida qo‘llash, xususan, davra suhbatlari orqali amalga oshirish, darslarda passiv qatnashuvchi yoki kamgap talabalarning fikrini erkin bayon etishiga imkon beradi, ularni faol nutqiy faoliyatga jalb etadi. Shaxsga yo‘naltirilgan paradigmadagi diskussiya jarayonlari ijtimoiylashuvni ta‘minlovchi eng muhim vosita sifatida qaraladi. Bu jarayonda turli qarashlarning mavjudligi tabiiy bo‘lib, ular orasida to‘liq yoki qisman haqiqatga yaqin fikrlar bo‘lishi mumkin. Muhimi, o‘qituvchi har qanday fikrni qat‘iy inkor etmasdan, o‘quvchilarni o‘zaro mantiqiy izlanishga, qarama-qarshiliklarni tahlil qilishga va asosiy nuqtalarni mustaqil ajrata olishga yo‘naltiradi. Natijada talabalarda tanqidiy fikrlash rivojlanadi, o‘z nuqtayi nazarini ishonarli dalillar bilan himoya qilish ko‘nikmasi shakllanadi.

“Dumaloq stol” metodi: Topshiriq yozib qo‘yilgan qog‘oz varag‘i davra bo‘lab aylantiriladi. Har bir talaba o‘zining javob variantini yozib qo‘ygach, varaqni boshqa talabaga uzatadi. Keyin muhokama bo‘ladi: noto‘g‘ri javoblar o‘chiriladi, to‘g‘ri javoblarning soniga qarab talabaning bilimlariga baho beriladi. Bu metodni faqat yozma shaklda emas, balki og‘zaki shaklda ham qo‘llash mumkin.[6]

“Breynstorming” va “Breynrayting” metodlari o‘quvchilarni fikrlash jarayoniga faol jalb etuvchi usullar sirasiga kiradi. Bu yondashuvlarda asosiy maqsad – barcha ishtirokchilarning mavzu yuzasidan o‘z fikrini erkin bildirishidir. Shu bois, o‘quvchilarning fikrlari to‘g‘ri yoki

noto'g'ri ekanligi darhol baholanmaydi, balki har bir ishtirokchining individual qarashini shakllantirishi va ifodalashi muhim sanaladi.

Kakografiya metodida esa o'quvchilarga ataylab xatolarga boy matnlar taqdim etiladi. Ishtirokchilar oldida bu xatolarni aniqlash va ularni to'g'rilash vazifasi qo'yiladi. Ushbu jarayon ularning mantiqiy tafakkurini, kuzatuvchanligini va til madaniyatini rivojlantiradi.

Noan'anaviy testlar esa an'anaviy baholash shakllaridan farq qiladi. Ular talabalardan nafaqat berilgan variantlardan birini tanlashni, balki savol ustida chuqur mulohaza yuritishni, tahliliy fikrlashni va ijodkorlikni talab qiladi. Shu tariqa, bunday testlar bilimni yuzaki emas, balki mazmunan anglab yetishga undaydi.

Natijalar. Tadqiqot jarayonida globallashuv davrida ta'lim falsafasining yangi paradigmalari, ularning mazmuni va amaliy ahamiyati tahlil qilindi. O'tkazilgan izlanishlar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy ta'lim jarayoni turli paradigmatic yondashuvlarga tayangan holda rivojlanmoqda. An'anaviy paradigma bilim va kompetensiyalarni o'zlashtirishga asoslangan bo'lsa, insonparvarlik (fenomenologik) paradigma o'quvchining erkinligi, ijodiy salohiyati va ma'naviy kamolotini rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Ilmiy-texnik paradigma o'quv jarayonini qat'iy me'yorlar, standartlar va natijalarga asoslangan holda tashkil etishni taqozo etsa, ezoterik paradigma ta'limning ichki ma'naviy-axloqiy mohiyatini yoritadi.

Tadqiqot davomida, shuningdek, paradigmatic yondashuvni amaliyotga joriy etuvchi turli metodlar samarali ekani aniqlangan. Jumladan, "breynstorming", "breynrayting", kakografiya, noan'anaviy testlar, diskussiya va davra suhbatlari o'quvchilarni faol fikrlashga, nutqiy faoliyatni rivojlantirishga hamda ijtimoiylashuv jarayonida mustaqil qarashlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, ta'lim falsafasida paradigmatic yondashuvlardan foydalanish nafaqat nazariy bilimlarni chuqurlashtirish, balki shaxsning har tomonlama kamol topishi, ijodkorligi, mustaqil tafakkuri va ijtimoiy faolligini rivojlantirish uchun muhim omil hisoblanadi. Bu esa zamonaviy ta'lim jarayonida falsafiy, metodologik va amaliy jihatdan yangi imkoniyatlar yaratadi.

Muhokama. Globallashuv jarayoni ta'lim falsafasida paradigmatic yondashuvlarning dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda. An'anaviy paradigma ta'limni ko'proq bilim berish jarayoni sifatida talqin etgan bo'lsa, bugungi kunda fenomenologik, ilmiy-texnik va ezoterik paradigmalar bilan uyg'unlashgan holda qo'llanishi ta'limning ko'p qirrali mohiyatini namoyon etmoqda. Shaxsga qaratilgan paradigmalarining amaliyotda keng tatbiq etilishi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, shuningdek, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va ijtimoiy faollikni rivojlantirish imkonini bermiqda.

Muhokama davomida aniqlanishicha, paradigmatic yondashuvlar nafaqat ta'limning falsafiy mazmunini boyitadi, balki pedagogik faoliyatda metodologik yangilanishlar uchun ham zamin yaratadi. Masalan, "breynstorming" va "breynrayting" usullari o'quvchilarning tafakkurini erkinlashtirsa, kakografiya ularni tanqidiy fikrlashga o'rgatadi, noan'anaviy testlar esa mustaqil mulohaza yuritish qobiliyatini shakllantiradi. Bunday metodlarning qo'llanilishi natijasida ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligi, nutqiy rivoji hamda ijtimoiylashuv darajasi sezilarli darajada oshadi.

Shu bilan birga, har bir paradigma o'zining afzalliklari bilan bir qatorda ayrim cheklavlarga ham ega ekanligi kuzatildi. Masalan, an'anaviy yondashuv bilimlarni tizimli o'zlashtirishga yordam bersa-da, ijodkorlik imkoniyatlarini cheklashi mumkin; insonparvarlik paradigmasi shaxs erkinligini ta'minlasa-da, natijalarni baholashda aniq mezonlarni belgilashda qiyinchilik tug'diradi. Ilmiy-texnik paradigma intizom va standartlashtirilgan baholash imkonini bersa-da, o'quvchilarning individual salohiyatini yetarlicha ochib bera olmaydi. Ezoterik paradigma esa shaxsning ichki kamolotini yuksaltirsa-da, uni keng amaliyotga tatbiq etish murakkabliklarini saqlab qolmoqda.

Muhokama shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ta'lim jarayonida birgina paradigma doirasida cheklanib qolmasdan, turli paradigmalarning ijobiy jihatlarini integratsiya qilish zarur. Bunday yondashuv ta'lim sifatini oshirish, yoshlarning intellektual, ma'naviy va ijodiy rivojini ta'minlash uchun samarali mexanizm bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ta'lim jarayonida paradigmatic yondashuvning qo'llanishi nafaqat bilim olishni, balki shaxsning ijtimoiylashuvini, mustaqil va tanqidiy fikrlashini, ijodiy faoliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. "Breynstorming", "breynrayting", "kakografiya", "noan'anaviy testlar", "dumaloq stol" va diskussiya kabi metodlarning samaradorligi shundaki, ular o'quvchilarning bilimlarini faollashtiradi, turli nuqtai nazarlarni yuzaga keltiradi, shuningdek, o'quvchilarni hamkorlikda ishlash, boshqalarning fikrini tinglash va hurmat qilishga o'rgatadi.

Mazkur metodlarning ta'lim jarayoniga tatbiqi o'z navbatida shaxsga qaratilgan paradigmada o'quvchining faol ishtirokini ta'minlaydi, kamgap va darslarda passiv bo'lgan talabalarning ham fikrini bildirishiga imkon yaratadi. Bu esa ularning nutqiy rivojlanishi, mantiqiy asoslash ko'nikmalari va kommunikativ salohiyatining ortishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, diskussiya jarayonida o'quvchilar bir-birining fikrlarini baholash, kuchli va zaif jihatlarini ajratib ko'rsatish orqali o'z bilimlarini mustahkamlaydi, o'qituvchi esa faqatgina yo'naltiruvchi va muvofiqlashtiruvchi rolni bajaradi.

Shunday qilib, paradigmatic yondashuvni amaliyotga joriy etish ta'lim-tarbiyaviy tizimning sifat jihatidan yuksalishini ta'minlaydi. Bu yondashuv orqali an'anaviy bilim berishdan tashqari o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, o'z nuqtai nazarini mantiqan asoslab himoya qilish kabi ko'nikmalar shakllanadi. Natijada, globallashuv sharoitida jamiyat ehtiyojlariga mos, ijtimoiy faolligi yuqori, barkamol insonni tarbiyalash imkoniyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. B.X.Xodjayev, Z.T.Saliyeva, N.B.Matkarimova. Pedagogikaning pragmatik aspektlari [Matn]: maqolalar – Toshkent: “Ijod Nashr” nashriyoti, 2023. - bet 193.
2. R.S.Zohidova. O'qituvchilarni kasbiy ijtimoiylashtirishda umumkasbiy va xususiy-metodik bilimlar integratsiyasining roli. World science, № 9(13), Vol.3, September, 2016. - bet 48.
3. B.X.Xodjayev, Umumiy pedagogika, Toshkent: “Sano-standart” nashriyoti, 2017. – betlar 65-66.
4. M.Pardayeva, Ta'limning funksiyalari va zamonaviy paradigmalari, France: Models and methods in modern science International scientific-online conference, 2021. – bet 49.
5. Sh.Sultanov, Texnokratik ta'lim paradigmasi va uni ijtimoiy faollikni rivojlantirishdagi ahamiyati, Academic Research in Educational Sciences, Volume 6, Issue 2, 2025. – bet 6.
6. Sh.Qurbonova, Tarbiya darslarida interfaol metodlardan foydalanish, scientific progress, Volume 2, Issue 6. 2021. – bet 1031.